

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

AMETOVA DILNOZA MAULETBAEVNA

**AVTOMOBIL BENZINLARINI DETONATSION BARQARORLIGINI
YAXSHILOVCHI QO'NDIRMALAR Olish TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ametova Dilnoza Mauletbaevna

Avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini yaxshilovchi qo‘ndirmalar olish texnologiyasi.....3

Аметова Дилноза Маулетбаевна

Технология получения присадок для улучшение детонационной стойкости автомобильного бензина.....21

Ametova Dilnoza

Technology for producing additives to improve the detonation resistance of motor gasoline.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannых rabot

List of published works.....45

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

AMETOVA DILNOZA MAULETBAEVNA

**AVTOMOBIL BENZINLARINI DETONATSION BARQARORLIGINI
YAXSHILOVCHI QO'NDIRMALAR OLIH TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/T2447 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot – ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Muxtor Jamolovich

kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Do'stov Hamro Bozorovich

kimyo fanlari doktori, professor

Sodiqov Usmonali Xudoyberganovich

texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil «26» aprel soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (461-raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «14» aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil «18» dekabrda № 22 raqamli reestr bayonnomasi).



S.F.Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.T.Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.d., dotsent.

H.B.Do'stov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annatatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda bioyoqilg'ilar, xususan bioetanol, biometanol, biometan va shu kabi boshqa qayta tiklanuvchi resurslar asosida olinuvchi yoqilg'ilar ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda. Metanol – ushbu alternativ yoqilg'ilar ichida avtomobil benzinlarini ekologik xavfsizligini va resursini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosida olingan avtomobil benzinlarini zamonaviy avtomobil dvigatellarida qo'llash mumkin. Shuning uchun, zamonaviy talablarga javob beruvchi metanol asosli alternativ yoqilg'ilar olishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda spirt, amin va efirlar asosida avtomobil benzinlarining detonatsion barqarorligini oshiruvchi qo'shimcha va qo'ndirmalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda har bir ishlab chiqilayotgan antidetonatsion qo'ndirmaning turli jarayonlar asosida olinuvchi benzinlar uchun aniq tarkibini ishlab chiqish va uning benzinlar uchun muqobil kontsentratsiyalarini tanlash, qo'ndirmalarning benzinlarga qo'yilgan talablar asosida benzinlarning ekologik-ekspluatatsion xossalari ta'sir etish samaradorligini baholash asosida olingan antidetonatsion qo'shimcha va qo'ndirmalar qo'shib avtomobil benzinlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda avtomobillar sonining ortishi bilan zamonaviy ekologik talablarga javob beruvchi yuqori oktanli benzinlarga bo'lgan talab ham oshmoqda. Shu sababli, qayta tiklanuvchi resurslar asosida avtomobil benzinlarining ham detonatsion xossalari yaxshilovchi ham ularning resursini oshiruvchi metanol asosida fizik-kimyoviy va ekologik-ekspluatatsion xossalari yaxshilangan benzinlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish”¹ kabi vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xomashyolar asosida avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini oshiruvchi qo'ndirma va qo'shimchalar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2016-yil 28-sentyabrdagi PQ-2614-sonli «2016-2020 yillarda uglevodород xomashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadirlari to'g'risida»gi va 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3246-sonli “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni

yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni oʻrganganlik darajasi. Avtomobil benzinlarining detonatsion barqarorligini oshiruvchi metanol asosida antidetonatsion qoʻndirma va qoʻshimchalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan jahonda Scott A. Stout, Allen D. Uhler, E. Lois, A.K. Gupta, Chongming Wang, Yanfei Li, Cangsu Xu, Tawfik Badawy, Amrit Sahu, Changzhao Jiang, Eiman Ali Eh. Sheet, Naveen Kumar, Mukul Tomar, Ankit Sonthalia, Dushyant Mishra, A.V. Tomin, V.E. Yemelyanov, A.V. Gantsev, A.A. Yakovlev, A.F. Axmetov, I.N. Pavlova, O.I. Parputs, G.L. Rabinovich, B.B. Jarkov, V.M. Kapustin, mamlakatimizda esa G.R. Narmetova, B.N.Xamidov, U.K. Axmedov, R.K. Axmedov, Sh.M.Saydaxmedov, S.F. Fozilov, R.R. Hayitov, M.J. Maxmudov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Ushbu olimlar tomonidan, avtomobil benzinlarini antidetonatsion xossalarini yaxshilovchi, yuqori samaradorlikka ega boʻlgan qoʻndirmalarni turli metalorganik birikmalar, ikkilamchi spirtlar va efirlar asosida ishlab chiqish boʻyicha koʻplab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu bilan bir qatorda, antidetonatsion qoʻndirmalar va benzin komponentlari asosida yuqori oktanli avtomobil benzinlari ishlab chiqarish boʻyicha qator ilmiy ishlanmalar va yoʻriqnomalar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, metanol, aromatik va politsiklik aminlar, butanol-1 va EUBE asosida avtomobil benzinlarining ekologik-ekspluatatsion xossalarini yaxshilovchi, ularning resursini oshiruvchi, benzin-spirt-suv kompozitsiyasining kimyoviy xossalarini Gibbs va Genri qonuniyatlariga tayangan holda uzoq induktsion davrga ega avtomobil benzinlari ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada oʻrganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №40-22 «Ishlatilgan kompressor moylarini mahalliy sorbentlar asosida regeneratsiyalash va GSU qurilmalaridan ajraluvchi gaz kondensatini qayta ishlab avtomobil benzini olish uchun qoʻllash» (2022-2024 yy.) mavzusidagi xoʻjalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi-avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini yaxshilovchi qoʻndirmalar va past oktanli avtomobil benzinlari asosida yuqori detonatsion barqarorlikka ega benzinlar olish texnologiyasi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neftni qayta ishlash sanoatida bazaviy yoqilgʻi fraktsiyalari va qayta tiklanuvchi resurslar (spirt va efirlar) asosida tovar yoqilgʻi mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha texnologik koʻrsatkichlarini yaxshilash yoʻnalishlarini qiyosiy tahlil qilish;

metanol, anilin, butanol-1 va EUBElarining mahalliy AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining detonatsion barqarorligiga taʼsirini aniqlash;

metanol, anilin, butanol-1, EUBE va urotropin asosida OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qoʻndirmalar olish va ularning avtomobil benzinlarining xiralanish haroratiga taʼsirini tadqiq qilish;

OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qoʻndirmalarini benzinlarning

detonatsion barqarorligi, smola hosil qilish darajasi va to‘yingan bug‘ bosimiga ta‘sirini aniqlash;

antidetonsion qo‘ndirma va mahalliy avtomobil benzini asosida olingan yuqori oktanli benzinni IQ-spektroskopiya usulida spektrogrammasini olish va tahlil qilish;

avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini yaxshilovchi qo‘ndirmalar va past oktanli avtomobil benzinlari asosida yuqori detonatsion barqarorlikka ega benzinlar olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Buxoro neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarilgan O‘zDST 3031:2015 standartiga muvofiq ishlab chiqarilayotgan AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlari va metanol, anilin, butanol-1, EUBE, urotropin va boshqa reagentlar olingan.

Tadqiqotning predmeti birlamchi va ikkilamchi spirtlar, aminlar va efirlar asosida antidetonsion qo‘ndirmalar olish va ularning mahalliy AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining detonatsion va fazaviy barqarorligiga ta‘sirini baholash va olingan antidetonsion qo‘ndirmalar asosida yuqori oktanli avtomobil benzinlari ishlab chiqarishning tarkibini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida IQ-spektroskopiya va boshqa birlamchi va ikkilamchi spirtlar, polisiklik va aromatik aminlar hamda efirlar asosida olingan qo‘ndirmalar va avtomobil benzilarning fizik-kimyoviy, ekspluatatsion xossalarini aniqlashning zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

OH* va *HO₂ radikallar to‘planishi bilan metanolning oksidlanish mexanizmi va kimyoviy reaksiyaning ehtimoliy reaksiya yo‘nalishi ishlab chiqilgan;

metanol asosida, anilin, butanol-1, EUBE va urotropin asosida oktan sonini oshiruvchi OKTAN-MA antidetonsion qo‘ndirmalari olinib, ularning benzinlardagi maksimal kontsentratsiyalari aniqlangan;

TOS-LAB-02 laboratoriya qurilmasi yordamida ASTM D 381 sinov standarti talabi bo‘yicha benzinlarning smola hosil qilishi aniqlanib, OKTAN-MA-4 (3%) va AI-80 (97%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-91 benzini tarkibida smolalar miqdori-2,6 mg ni, OKTAN-MA-4 (1%) va AI-91 (99%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-95 benzini tarkibida smolalar miqdori 2,8 mg tashkil etishi isbotlangan;

OKTAN-MA-4 antidetonsion qo‘ndirmasi asosida olingan AI-91 benzini to‘yingan bug‘ bosimi 63,0 kPa va AI-95 tovar benzinniki esa 62,9 kPa ni tashkil etganligi aniqlangan;

OKTAN-MA-4 antidetonsion qo‘ndirmasi va avtomobil benzinlari asosida yuqori oktanli tovar benzinlari olish texnologik tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

spirt, amin va efirlar asosida mahalliy avtomobil benzinlarining detonatsion xossalarini yaxshilovchi qo‘ndirmalar olingan;

olingan antidetonsion qo‘ndirmalarning AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining xiralani harorati, smola hosil qilish darajasi va to‘yingan bug‘ bosimiga ta‘siri aniqlangan;

OKTAN – MA-4 antidetonsion qo‘ndirmasining AI-80 va AI-91 benzinlari asosida yuqori oktanli benzinlar olish uchun muqobil kontsentratsiyalari

aniqlangan;

OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va avtomobil benzinlari asosida yuqori oktanli tovar benzinlari olish texnologik tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot zamonaviy fizik-kimyoviy, ekspluatatsion tahlil usullaridan foydalanilgan holda olib borilgan, laboratoriya va neftni qayta ishlash zavodlari, neft inspeksiyasi va neft bazalarda tajriba-sinovlardan o'tkazilib, dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, OH^* va $^*\text{HO}_2$ radikallar to'planishi bilan metanolning oksidlanish mexanizmi va kimyoviy reaksiyaning ehtimoliy reaksiya yo'nalishi ishlab chiqish orqali metanol asosida antidetonatsion qo'ndirmalar olish, benzin-spirt-suv sistemasini Gibbs va Genri qonuniyatlari asosida o'rganish va ilmiy- texnologik asoslarini yaratishda asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, spirt, amin va efirlar asosida benzinlarning detonatsion barqarorligini oshiruvchi qo'ndirmalar olish va ularning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlaridan yuqori oktanli tovar benzinlari olishdagi optimal kontsentratsiyalarini aniqlash, mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli avtomobil benzinlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini yaxshilovchi qo'ndirmalar olish texnologiyasi ilmiy tadqiqot ishbo'yicha olingan natijalar asosida:

kislorodli birikmalar asosida olingan Oktan-MA-4 oksigenati 1% miqdorda mahalliy AI-91 benziniga aralastirilib, AI-95 avtomobil benzinini ishlab chiqarish texnologiyasi Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining "2026-2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalari ro'yxati"ga kiritilgan (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining 2024-yil 11-iyuldagi 02-03-01/182-sonli ma'lumotnomasi). Natijada AI-91 avtomobil benzini va Oktan-MA-4 oksigenati asosida AI-95 oktan soniga ega bo'lgan markadagi va atrof-muhitga kam zararli avtomobil benzinlari ishlab chiqarish imkonini beradi;

oktan-MA-4 oksigenat kompozitsiyasini olish va uni mahalliy AI-91 avtomobil benziniga qo'shib, AI-95 avtomobil benzinlari ishlab chiqarishning texnologik tizimi Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining "2026-2030-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalari ro'yxati"ga kiritilgan (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining 2024-yil 11-iyuldagi 02-03-01/182-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, OKTAN-MA-4 qo'ndirmasi va past oktanli tovar benzinlari hamda benzin komponentlari asosida oktan soni bo'yicha Evro talablarga javob beruvchi avtomobil benzinlari ishlab chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalar, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi keltirilgan bo'lib, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari yoritib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini oshiruvchi oksigenatlar tavsifi va ularni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari**» deb nomlangan birinchi bobida, avtomobil benzinlarining umumiy fizik-kimyoviy, ekologik va ekspluatatsion xossalari, benzinlarni turlari va ularga qo'yilgan mahalliy va dunyodagi zamonaviy ekologik va ekspluatatsion talablar batafsil tahlil etildi. Avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligini oshiruvchi oksigenatlar tavsifi va ularni benzinlarni detonatsion barqarorligiga ta'sir etish mexanizmi tahlil etildi. Ushbu tahlillar, etilen oksidi uning izomeri sirka aldegidiga nisbatan past oksidlanish darajasiga egaligi va bu uning yuqori yonish issiqligini anglatadi. Oksigenatlarni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari keltirilib, ularing afzalliklari va kamchiliklari, xomashyo resurslari, olinadigan mahsulotlarning sifati va ularning avtomobil benzinlariga qo'shilishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Avtomobil benzinlariga antidetonatsion qo'ndirma va qo'shimchalarning ta'siri tadqiq qilish va olingan benzin namunalari fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalarini tahlil qilish**» deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot ob'ekti sifatida qo'llanilgan AI-80 avtomobil benzinining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari keltirilgan. Oksigenatlar va benzin fraktsiyalarini kompaundlashning laboratoriya qurilmasi tavsifi va oksigenatlarning avtomobil benzinining detonatsion barqarorligiga ta'sirini OKTAN-IM oktanometri yordamida aniqlash usullari to'liq bayoni keltirilgan. Antidetonatsion qo'ndirmalari benzinlarni IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilish va antidetonatsion qo'ndirmalarni benzinlarning smola hosil qilish xossasiga ta'sirini aniqlash metodikasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Avtomobil benzinlarning spirt, efir va aminlar bilan o'zaro ta'sirlashish mexanizmi va metanol, anilin, butanol-1, EUBE, urotropinning mahalliy AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarning antidetonatsion barqarorligi va xiralanish haroratiga ta'sirini tadqiq qilish**» deb nomlangan uchinchi bobida, OH* va *HO₂ radikallar to'planishi bilan metanolning oksidlanish mexanizmi va kimyoviy reaksiyaning ehtimoliy reaksiya yo'nalishi ishlab chiqildi. Tajribaviy natijalar eritish va aralashtirish jarayonlaridagi termodinamik funktsiyalarni yuqori aniqlikda yechib, Gibbs energiyasi, entalpiya, entropiya kabi ko'rsatkichlarni yuqori aniqlik olinib, benzin-spirt-suv aralashmasining termodinamik funktsiyalari va fazalar muvozanati

o'rganildi. Uglevodorod-spirit-suv uchun Genri konstantasini haroratga bog'liq holda eritish entalpiyasi aniqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari esa spirtlar suv va ion suyuqliklar bilan murakkab tizim hosil qilishganligi sababli, ushbu haroratga bog'liqlik ko'rsatkchidagi xatolik 45-65°C ni, korrelyatsiya koeffitsiyenti esa $R_2 > 0,998$ tashkil qildi. Ushbu olingan natijalar avtomobil benzinlari tarkibidagi uglevodorodlarning tarkibiy miqdoriga qarab, spirtlar tarkibidagi suv miqdorini tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Avtomobil benzinlari uchun antidetonatsion xossalarni yaxshilovchi qo'ndirmalar olishda alifatik spirtlarni tanlashning ilmiy asoslari ishlab chiqildi.




Bizga ma'lumki, eritmalaridagi molekularo ta'sirlashuvda, kimyoviy tabiati bo'yicha (uglevodorodlar va spirtlar) ajratiladi va bu azeotrop hodisa deb nomlanadi. Azeotrop moddalar asosan ikkita moddadan tashkil topgan bo'lsada, har bir modda uchun individual qaynash haroratiga ega bo'ladi. Bu esa azeotrop aralashmalar hosil qiluvchi komponentlar o'rtasidagi molekularo ta'sirga egaligini anglatadi va bunday hodisalar uglevodorod va spirtlar aralashmalaridagi supromolekulyar tuzilishini tadqiq qilish natijasida aniqlangan.

1- rasm. OH* va *HO₂ radikallar to'planishi bilan metanolning oksidlanish mexanizmi va kimyoviy reaksiyaning ehtimoliy reaksiya yo'nalishi (ushbu mexanizmda metanolning oksidlanishini turli yo'nalishlari keltirilgan).

Bundan tashqari, metanol va benzinning tarkibiy qismi bo'lgan benzolning blokli tuzilishi mexanizmi ham ishlab chiqilgan

bo'lib,



benzol molekulari metanolning molekulari atrofida joylashib, ular bir-biridan to'liq izoyatsiyalanadi va azeotrop eritmani hosil qiladi deb taxmin qilinadi (2-rasm).

2 rasm. Benzol-metanol azeotropi blokli tuzilishi

Shunday qilib, uglevodorod-spirit aralashmalarini azeotrop hodisasida spirtlarning nisbatan ko'p konsentratsiyasida o'ziga xos

tuzilishni namoyon etadi degan taxmin qilinadi.

Bugungi kunda avtomobil benzinlarining xiralanish harorati qishki mavsum uchun minus 35°C qilib belgilangan. Metanolning AI-80 va AI-91 avtobenzinlarning xiralanish haroratiga ta'sirini aniqlash tajriba natijalari, ushbu mahalliy benzinlar tarkibiga 7% gacha metanol qo'shilganda, ularning xiralanish harorati belgilangan standartga mos kelishi aniqlandi va shundan kelib chiqqan holda, ularning tarkibiga 7% metanol qo'shib, ularning oktan soniga ta'siri tadqiq etilidi.

EUBening avtomobil benzinlarining antidetonatsion xossalari ta'sirini

o'rganish tadqiqot natijalari, ushbu efirning 15% miqdorda AI-91 avtomobil benziniga qo'shilganda 100,2 punktni, AI-80 benziniga qo'shilganda esa 89 punktga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu olingan natijalardan EUBE ikki maqsadda avtomobil benzinlari uchun antideetonatsion qo'ndirmalarda qo'llash mumkinligini ta'kidlash lozim: birinchidan, benzin-spirt aralashmasini barqarorlashtiruvchi va uning oktan sonini oshiruvchi qo'shimcha sifatida.

Dissertatsiyaning «**Kislorodli birikmalar, aromatik va politsiklik aminlar asosida avtomobil benzinlarini antideetonatsion xossalarini yaxshilovchi qo'ndirmalar olish texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida, metanol, anilin, butanol-1, EUBE, urotropin asosida antideetonatsion kompozitsiyalar olish va ularni avtomobil benzinlarning antideetonatsion barqarorligi va xiralanish haroratiga ta'sirini tadqiq qilish, OKTAN-MA tipdagi antideetonatsion qo'ndirmalarning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlarining fizik-kimyoviy xossalari ta'sirini tadqiq qilish, antideetonatsion qo'ndirmalar asosida olingan benzin na'munalarining smola hosil qilish darajasini aniqlash, antideetonatsion qo'ndirmalar asosida olingan benzin na'munalarining to'yingan bug' bosimini aniqlash, OKTAN-MA-4 antideetonatsion qo'ndirmasi va uning AI-80 benzini asosida olingan tovar benzin na'munasini IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilish, OKTAN-MA-4 antideetonatsion qo'ndirmasi va avtomobil benzinlari asosida yuqori oktanli tovar benzinlari olish texnologiyasini ishlab chiqish, olingan benzin namunalarini stand sinovdan o'tkazish, OKTAN-MA-4 qo'ndirmasini qo'llab avtomobil benzinlari olishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash tadqiqot natijalari keltirilgan.

1–jadval

Metanol, anilin, butanol-1, EUBE, urotropin asosida antideetonatsion kompozitsiyalarining tarkibi

№	Antideetonatsion kompozitsiya nomi	Antideetonatsion kompozitsiyaning tarkibi, %				
		Metanol	Anilin	Butanol-1	EUBE	Urotropin
1	OKTAN – MA-1	90	5	5	-	-
2	OKTAN – MA-2	90	5	-	5	-
3	OKTAN – MA-3	90	5	-	-	5
4	OKTAN – MA-4	90	3	3	3	1
5	OKTAN – MA-5	80	10	10	-	-
6	OKTAN – MA-6	80	10	-	10	-
7	OKTAN – MA-7	80	10	-	-	10
8	OKTAN – MA-8	70	15	15	-	-
9	OKTAN – MA-9	70	15	-	15	-
10	OKTAN – MA-10	70	15	5	5	5

Yuqorida bobda olingan natijalar va xulosalarga tayangan holda, bizning ilmiy tadqiqotlarimizda bir nechta avtomobil benzinlarning antidetonatsion xossalari yaxshilovchi qo'ndirma kompozitsiyalari olindi va ularning tarkibi 1 – jadvalda keltirilgan.

Ushbu qo'ndirmalarning asosini metanol tashkil etadi. Chunki metanol qayta tiklanuvchi va arzon resurs bazasiga ega bo'lib, shu bilan birga benzinning oktan sonini oshirishda ham xizmat qiladi.

1-jadvalda keltirilgan OKTAN-MA antidetonatsion qo'ndirmalarining asosini metanol (ham asos ham oktan sonini oshiruvchi), anilin – oktan sonini oshiruvchi, butanol-1, EUBE va urotropin benzin-spirt-suv aralashmasining barqarorlashtirgichi va oktan sonini oshiruvchi sifatida qo'llab olindi. Tadqiqotlarimizning ilk bosqichida ushbu antidetonatsion kompozitsiyalarning AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarning xiralanish haroratiga ta'siri o'rganilib, ularning optimal konsentratsiyalari tanlab olindi.

OKTAN-MA antidetonatsion qo'ndirmalarini mahalliy avtomobil benzinlarining xiralanish haroratiga ta'siri natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

OKTAN-MA antidetonatsion qo'ndirmalarini mahalliy AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining xiralanish haroratiga ta'siri natijalari asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalaridan avtomobil benzinlari uchun muqobil konsentratsiyalar aniqlab olindi: OKTAN-MA-3 va OKTAN-MA-7-4% gacha; OKTAN-MA-1 va OKTAN-MA-9-5% gacha; OKTAN-MA-2, OKTAN-MA-5 va OKTAN-MA-8-6% gacha; OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6 va OKTAN-MA-10-7% gacha.

Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida OKTAN-MA antidetonatsion qo'ndirmalarning AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining detonatsion barqarorligiga ta'siri aniqlandi.

OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qo'ndirmalarning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlarining detonatsion barqarorligiga ta'sirini aniqlash tajribalari natijalari, bu qo'ndirmalarning benzinlarni detonatsion barqarorligini oshirishda samaradorligini ko'rsatdi.

OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qo'ndirmalarning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlarining detonatsion barqarorligiga ta'sirini o'rganish tadqiqot natijalari asosida, ushbu tipdagi qo'ndirmalar va mahalliy AI-80 benzinidan AI-91 tovar benzinini va AI-91 avtomobil benzinidan esa AI-95 benzinini ishlab chiqarish uchun kerakli konsentratsiyalari tanlab olindi va ushbu natijalar 3 – jadvalda keltirilgan.

OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qo'ndirmalarning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlari asosida yuqori oktanli tovar benzinlari olish uchun muqobil konsentratsiyalari aniqlash va ularni taqqoslash natijalarida OKTAN-MA-2, OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6, OKTAN-MA-8, OKTAN-MA-9 va OKTAN-MA-10 antidetonatsion kompozitsiyalarining yuqori natijalar ko'rsatgani aniqlandi va ushbu antidetonatsion qo'ndirmalarning avtomobil benzinlarning boshqa xossalari ta'sirini aniqlash tahlillarida qo'llanildi.

OKTAN-MA antidekatanatsion qo'ndirmalarni mahalliy avtomobil benzinlarining xiralanish haroratiga ta'siri

Antidekatanatsion kompozitsiya nomi	Antidekatanatsion kompozitsiyalarning benzinlardagi konsentratsiyasi, %													
	3		4		5		6		7					
	AI-80	AI-91	AI-80	AI-91	AI-80	AI-91	AI-80	AI-91	AI-80	AI-91				
OKTAN – MA-1	-54	-52	-51	-49	-45	-41	-38	-34	-31	-27				
OKTAN – MA-2	-57	-54	-52	-48	-47	-45	-40	-38	-32	-30				
OKTAN – MA-3	-45	-42	-39	-36	-32	-25	-27	-20	-21	-15				
OKTAN – MA-4	-57	-54	-57	-54	-50	-48	-45	-42	-39	-36				
OKTAN – MA-5	-57	-54	-50	-47	-46	-42	-42	-37	-36	-32				
OKTAN – MA-6	-57	-54	-57	-54	-49	-45	-43	-40	-37	-35				
OKTAN – MA-7	-46	-42	-40	-36	-34	-30	-29	-24	-24	-18				
OKTAN – MA-8	-55	-51	-50	-47	-46	-43	-40	-38	-35	-33				
OKTAN – MA-9	-53	-50	-46	-43	-42	-37	-36	-33	-30	-25				
OKTAN – MA-10	-57	-54	-57	-54	-53	-50	-46	-43	-42	-38				

OKTAN-MA tipdagi antidetonatsion qo‘ndirmalarning mahalliy AI-80 va AI-91 benzinlari asosida yuqori oktanli tovarbenzinlari olish uchun muqobil konsentratsiyalari

№	Antidetonatsion kompozitsiya nomi	AI-80 benzini asosida AI-91 benzini olish uchun kerakli konsentratsiya, %	AI-91 benzini asosida AI-95 benzini olish uchun kerakli konsentratsiya, %
1	OKTAN – MA-1	-	2
2	OKTAN – MA-2	6	2
3	OKTAN – MA-3	-	-
4	OKTAN – MA-4	3	1
5	OKTAN – MA-5	-	2
6	OKTAN – MA-6	6	2
7	OKTAN – MA-7	-	-
8	OKTAN – MA-8	6	2
9	OKTAN – MA-9	5	1
10	OKTAN – MA-10	4	2

Bizga ma’lumki, bugungi kunda avtomobil benzinlariga turli spirt, efir, amin yoki boshqa birikmalarning kiritilishi bilan, benzinlarning smola hosil qilish darajasi oshishi mumkin. Shuning uchun, benzinlarda antidetonatsion qo‘ndirmalar qo‘shishda ushbu ko‘rsatkichni aniqlash katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘z DSt bo‘yicha me‘yor DSt 3031-2015 standarti bo‘yicha 100 sm³ avtomobil benzinlari tarkibida smolalarning konsentratsiyasi 5 mg dan oshmasligi lozim. Bizning tadqiqot ob’ektlarimiz AI-80 avtomobil benzinida smolalar miqdori 100 sm³ benzinda 2,2 mg ni, 100 sm³ AI-91 benzinida esa 2,5 mg ni tashkil etdi.

Ushbu tadqiqotlarimizning ilk bosqichida OKTAN-MA-2, OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6, OKTAN-MA-8, OKTAN-MA-9 va OKTAN-MA-10


qo‘ndirmalarning maksimum qilib belgilangan konsentratsiyalarida va AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlari asosida yangi yuqori oktanli benzin namunalari olindi. So‘ngra TOS-LAB-02 laboratoriya qurilmasi yordamida ASTM D 381 sinov standarti talab bo‘yicha benzinlarning smola hosil qilish darajalari aniqlandi. Ushbu tadqiqotlarimizda AI-80 benzini va OKTAN-MA antidetonatsion qo‘ndirmalari aralashmasi asosida AI-91 tovar avtomobil benzini va AI-91 benzini va OKTAN-MA antidetonatsion qo‘ndirmalari aralashmasi asosida AI-95 tovar avtomobil benzini olindi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, OKTAN-MA-2, OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6, OKTAN-MA-8, OKTAN-MA-9 va OKTAN-MA-10 qo‘ndirmalarining AI-80 va AI-91 benzinlarining smola hosil qilish darajasiga ta’siri bo‘yicha OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6 va OKTAN-MA-10 qo‘ndirma kompozitsiyalari samarali natijalar ko‘rsatdi. Jumladan, OKTAN-MA-4 (3%) va AI-80 (97%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-91 benzini tarkibida smolalar miqdori – 2,6 mg ni,

OKTAN-MA-4 (1%) va AI-91 (99%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-95 benzini tarkibida smolalar miqdori 2,8 mg tashkil qildi. OKTAN-MA-6 (6%) va AI-80 (94%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-91 benzini tarkibida smolalar miqdori – 4,4 mg ni, OKTAN-MA-6 (2%) va AI-91 (98%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-95 benzini tarkibida smolalar miqdori 3,2 mg tashkil qildi. OKTAN-MA-10 (4%) va AI-80 (96%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-91 benzini tarkibida smolalar miqdori – 3,6 mg ni, OKTAN-MA-10 (2%) va AI-91 (98%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-95 benzini tarkibida smolalar miqdori 3,5 mg tashkil qildi. Ushbu olingan natijalardan kelib chiqqan holda, OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6 va OKTAN-MA-10 qo‘ndirma kompozitsiyalari keyingi tadqiqotlar uchun tanlab olindi va ularning avtomobil benzinlarining to‘yingan bug‘ bosimiga ta’siri tadqiq etildi.

OKTAN-MA-4, OKTAN-MA-6 va OKTAN-MA-10 qo‘ndirmalari va AI-80 va AI-91 benzinlari asosida olingan benzin na’munalari to‘yingan bug‘ bosimini aniqlash natijalari OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo‘ndirmasi asosida olingan AI-91 benzini to‘yingan bug‘ bosimi – 63,0 kPa va AI-95 tovar benzinniki esa – 62,9 kPa ni tashkil etdi. OKTAN-MA-10 antidetonatsion qo‘ndirmasi asosida olingan AI-91 benzini to‘yingan bug‘ bosimi – 65,0 kPa va AI-95 tovar benzinniki esa – 64,0 kPa ni tashkil etdi.

Avtomobil benzinlarini to‘yingan bug‘ bosimini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo‘ndirmasi yordamida olingan tovar benzin na’munalari to‘yingan bug‘ bosimi bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdi va shuning uchun, ushbu qo‘ndirma ilmiy tadqiqotlarimizda eng samarali va maqbul qo‘ndirma sifatida tanlab olindi va uning funktsional tarkibini va ushbu qo‘ndirma asosida olingan benzin namunasining IQ-spektroskopiya usulida kimyoviy guruh tarkibi aniqlandi




3-rasm. AI-80 avtomobil benzinining IQ-spektroskopiya usulida olingan spektrogrammasi

AI-80 avtomobil benzining IQ-spektroskopiya usulida olingan spektrogrammasi 3-rasmda keltirilgan bo'lib, ushbu spektrogrammani funksional guruh tahlili, benzin namunasi antidetonatsion qo'ndirmalarsiz ishlab chiqarilganini ko'rsatdi. Ya'ni, uning tarkibida spirt, amin va efir guruhlari mavjud emasligi aniqlandi.

IQ-spektroskopiya tahlil natijalari, antidetonatsion qo'ndirmalarning olingan tovar benzinnida to'liq mavjudligini isbotlab berdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va avtomobil benzini asosida yuqori oktanli tovar benzini olish texnologiyasini ishlab chiqildi (3-rasm). Ushbu texnologiya ikki asosiy qismdan tashkil topgan bo'lib, birinchi qismda metanolni urotropin bilan aralashtirish va ikkinchi qismda OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi moddalarini, AI-80 va AI-91 avtomobil benzini bilan kompaundlab, yuqori oktanli tovar benzini ishlab chiqarishdan iborat.

OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va AI-80 benzini asosida olingan AI-91 tovar avtomobil benzining spektrogrammasi 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va AI-80 benzini asosida olingan AI-91 tovar avtomobil benzining spektrogrammasi

IQ spektrometri yordamida olingan natijalarga ko'ra, AI-80 avtomobil benzining OKTAN-MA-4 kompozitsiyasini 3% konsentratsiyada kompaundlab olingan AI-91 benzini va AI-80 benzini IQ-spektri keltirilgan. IQ-spektrida ($C_6H_{12}N_4$) polisiklik amin guruhi valent tebranish siglani $3595,34 \text{ sm}^{-1}$ sohada, ($-NH_2$) aromatik anilin guruhi valent tebranish signali $3406,22 \text{ sm}^{-1}$ sohada, kislorodli birlamchi spirt ($-CH_3-OH$) guruhining valent tebranish signallari $1048,57 \text{ sm}^{-1}$

$C-CH-C$
 1 sohada, ikkilamchi spirti (OH) guruhining tebranish signali esa $1086,13 \text{ sm}^{-1}$ sohada, oddiy efir ($C-O-C$) guruhining valent tebranishi $881,22 \text{ sm}^{-1}$ sohalarda namoyon bo'lganini kuzatish mumkin.

5-rasmdagi texnologik tizimga muvofiq, E-1 sig'imidagi urotropin

maydalagichda 15-20 nm diametrlarda maydalanib, A-1 aralashtirgichga yuboriladi. E-1 sig'imdagi metanol esa N-1 nasos yordamida dozator orqali A-1 aralashtirgichga beriladi va urotropinning metanolga to'liq erigandan keyingi eritmasi N-2 yordamida E-3 sig'mga beriladi. Shundan so'ng, barcha sig'implardagi moddalar E-4 sig'imdagi butanol-1, E-5 sig'imdagi anilin, E-6 sig'imdagi EUBE, E-7 sig'imdagi AI-80, AI-91 benzinar dozatorlar yordamida kerakli miqdorda nasoslar yordamida A-2 sirkulyatsion aralashtirgichga yuboriladi va unda to'liq aralashtirilib, AI-91 va AI-95 tovar avtomobil benzinarini ishlab chiqariladi.



5-rasm. OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va avtomobil benzinarini asosida yuqori oktanli tovar benzinarini olish texnologik tizimi: E-1- Urotropin sig'imi, E-2-Metanol sig'imi, A-1-Aralashtirgich, A-2-Sirkulyatsion aralashtirgich, 3-Aralashma sig'imi, E-4-Butanol-1 sig'imi, E-5-Anilin sig'imi, E-6- EUBE sig'imi, E-7AI-80, AI-91 benzini uchun sig'imi, N-1, N-2, N-3, N-4, N-5, N-6, N-7, N-8- suyuqlik nasoslari

OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va AI-80 benzini asosida olingan tovar AI-91 benzini va OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va AI-91 benzini asosida olingan tovar AI-95 avtomobil benzinarining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari 4-jadvalda keltirilgan.

OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi asosida olingan AI-91 va AI-95 tovar avtomobil benzinarini fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari bo'yicha O'z DSt 3031-2015 standarti talabi me'yorlariga to'la javob beradi.

O'tkazilgan stend sinov natijalarida AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-95 benzini AI-91 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-95 benzini qaraganda yaxshiroq natija ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Buni past oktanli avtomobil benzini tarkibiga kislorod saqlagan antidetonatsion qo'ndirmaning ko'proq qo'shilganligi va benzin-havo yonuvchi aralashma tarkibida kislorodning mavjudligi sababli, ushbu benzin na'munalarida to'liq yonish jarayoni yaxshiroq

borgani bilan tushuntirish mumkin.

4-jadval

OKTAN-MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va mahalliy benzinlar asosida olingan AI-91 va AI-95 tovar avtomobil benzinlarining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari

№	Ko'rsatkichlar	AI-91	AI-95	
1.	Rangi	Ravshan sariq,toza , shaffof		
2.	Detanatsion barqarorligi:	TUOS	91,1	94,8
		MUOS	88,0	91,5
3.	20°C zichligi, gr/sm^3	0,770	0,782	
4.	Nur sindirish koeffisenti, n^{20}	1,4640	1,4644	
5.	Mis plastinkadagi sinov	Chidamli		
6.	Suv miqdori	Mavjud emas		
7.	Mexanik aralashmalar miqdori	Mavjud emas		
8.	Fraksion tarkibi:			
	Boshlang'ich qaynash harorati, °C	35	36	
	Haydash oraliqlari, °C:			
	10%	53	56	
	50%	102	106	
	90%	150	155	
	So'ngi qaynash harorati, °C	185	188	
	Kolbadagi qoldiq, %	1,8	1,6	
	Yo'qotilish, %	2,0	1,3	
9.	Oltingugurtning massaviy ulushi, %	0,02	0,02	
10.	Suvda eruvchi kislota va ishqorlar miqdori	Mavjud emas		
11.	Kislotaliligi, 100 sm^3 benzinda KOHmg	2,8	2,2	
12.	Smolalar miqdori, 100 sm^3 /mg	2,6	2,8	
13.	To'yingan bug' bosimi, kPa	63,0	62,9	

Giam-29M4 gaz analizatori yordamida o'tkazilgan stend sinov natijalari AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{min} bo'lganda uglerod oksidi gazlari 2,5% va AI-91 va Oktan-MA-4 asosida olingan AI-95 benzinida 2,2%, AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{max} bo'lganda uglerod oksidi gazlari 1,7% va AI-91 va Oktan-MA-4 asosida olingan AI-95 benzinida 1,3% tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Uglevodород gazlari esa AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{min} bo'lganda uglerod gazlari 1545 ppm va AI-91 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-95 benzinida 1470 ppm, AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi

n_{\max} bo'lganda uglerod gazlari 688 ppm va AI-91 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-95 benzini 574 ppm ni tashkil etdi.

AI-80 va AI-91 avtomobil benzini hamda OKTAN-MA-4 antideetonatsion qo'ndirmasi asosida olinuvchi AI-91 va AI-95 avtomobil benzini sarflanuvchi xarajatlar 5 – jadvalda keltirilgan.

5 – jadval

AI-80 va AI-91 benzini olishning oksignatlarni qo'shib AI-91 va AI-95 benzini ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi

№	Kerakli moddalar va xizmat ko'rsatish	Ishlab chiqaruvchi	Miqdori, ml	Xarajatlar, so'm
1	AI-80 benzini	BNQIZ, FNQIZ	997,0	6879
2	Metanol	“NAVOIYAZOT”AO	2,7	8,46
3	Butanol-1	Ximabsolyut (Rossiya)	0,09	7,5
4	Anilin	BRONT OOO (Rossiya)	0,09	11,7
5	EUBE	“ZEBOI”AO	0,09	12,82
6	Urotropin	“NAVOIYAZOT”AO	0,03	9,1
7	Boshqa xarajatlar			22,2
Jami:			1000	6950,78
1	AI-91 benzini	BNQIZ, FNQIZ	999,0	10489,5
2	Metanol	“NAVOIYAZOT”AO	0,9	2,82
3	Butanol-1	Ximabsolyut (Rossiya)	0,03	2,5
4	Anilin	BRONT OOO (Rossiya)	0,03	3,9
5	EUBE	“ZEBOI”AO	0,03	4,27
6	Urotropin	“NAVOIYAZOT”AO	0,01	3,03
7	Boshqa xarajatlar			22,2
Jami:			1000	10528,22

**Izoh: Ushbu yuqoridagi ma'lumotlar 16.07.2024 yildagi ko'rsatkichlar asosida hisoblangan. AI-80 benzini – 6900 so'm, AI-91 benzini – 10500 so'm, AI-95 benzini – 12400 so'm*

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini olish uchun ja'mi **6950,78 so'm**ni tashkil etdi va ushbu summani sotuvdagi AI-95 benzini narxidan ajratilsa, iqtisodiy daromad quyidagini tashkil etadi:

$$10500 - 6964,38 = 3549,22 \text{ so'm}$$

Agarda AI-95 benzini AI-91 benzini komponentlari asosida olinsa, u holdagi iqtisodiy samaradorlik quyidagini tashkil etadi:

$$12400 - 10528,22 = 1871,78 \text{ so'm}$$

Ushbu olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, AI-80 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-91 benzini olinganda **3549,22 so'm**, AI-91 va OKTAN-MA-4 asosida olingan AI-95 benzini ishlab chiqarilganda esa **1871,78 so'm** har bir litr benzindan iqtisodiy samara olinadi.

XULOSA

1. Metanol, anilin, butanol-1, EUBE, urotropin kabi moddalarning mahalliy AI-80 va AI-91 avtomobil benzinlarining xiralanish harorati va antidetonatsion barqarorligiga ta'sirini aniqlandi.

2. Metanol asosida (ham asos ham oktan sonini oshiruvchi), anilin – oktan sonini oshiruvchi, butanol-1, EUBE va urotropin benzin-spirt-suv aralashmasining barqarorlashtirgichi va oktan sonini oshiruvchi sifatida qo'llab OKTAN – MA antidetonatsion qo'ndirmalari olindi.

3. OKTAN – MA antidetonatsion qo'ndirmalarini mahalliy AI-80 va AI- 91 avtomobil benzinlarining xiralanish haroratiga ta'siri natijalari asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalaridan avtomobil benzinlari uchun muqobil konsentratsiyalar aniqlandi: OKTAN – MA-3 va OKTAN – MA-7 – 4% gacha; OKTAN – MA-1 va OKTAN – MA-9 – 5% gacha; OKTAN – MA-2, OKTAN – MA-5 va OKTAN – MA-8 – 6% gacha; OKTAN – MA-4, OKTAN – MA-6 va OKTAN – MA-10 – 7% gacha.

4. OKTAN – MA antidetonatsion qo'ndirmalari asosida olingan benzin namunalari TOS-LAB-02 laboratoriya qurilmasi yordamida ASTM D 381 sinov standarti talab bo'yicha benzinlarning smola hosil qilish darajalari aniqlandi. OKTAN – MA-4 (3%) va AI-80 (97%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-91 benzini tarkibida smolalar miqdori – 2,6 mg ni, OKTAN – MA-4 (1%) va AI-91 (99%) benzini asosida olingan 100 sm³ AI-95 benzini tarkibida smolalar miqdori 2,8 mg tashkil qildi.

5. OKTAN – MA-4, OKTAN – MA-6 va OKTAN – MA-10 qo'ndirmalari va AI-80 va AI-91 benzinlari asosida olingan benzin namunalarning to'yingan bug' bosimini aniqlash natijalari OKTAN – MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi asosida olingan AI-91 benzini to'yingan bug' bosimi – 63,0 kPa va AI-95 tovar benzinniki esa – 62,9 kPa ni tashkil etdi. OKTAN – MA-10 antidetonatsion qo'ndirmasi asosida olingan AI-91 benzini to'yingan bug' bosimi – 65,0 kPa va AI-95 tovar benzinniki esa – 64,0 kPa ni tashkil etdi.

6. AI-80 avtomobil benziniga OKTAN-MA-4 kompozitsiyasini 3% konsentratsiyada kompaundlab olingan AI-91 benzini IQ-spektri olindi va IQ-spektrida (C₆H₁₂N₄) polisiklik amin guruhi valent tebranish siglani 3595,34 sm⁻¹ sohada, (-NH₂) aromatik anilin guruhi valent tebranish signali 3406,22 sm⁻¹ sohada, kislorodli birikma birlamchi spirt (-CH₃-OH) guruhining valent tebranish signallari 1048,57 sm⁻¹ sohada, ikkilamchi spirti guruhining tebranish signali esa 1086,13 sm⁻¹ sohada, oddiy efir (C-O-C) guruhining valent tebranishi 881,22 sm⁻¹ sohalarda mavjudligi isbotlandi.

7. OKTAN – MA-4 antidetonatsion qo'ndirmasi va avtomobil benzinlari asosida yuqori oktanli tovar benzinlari olish texnologik tizimi ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАКА**

АМЕТОВА ДИЛНОЗА МАУЛЕТБАЕВНА

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ПРИСАДОК, УЛУЧШАЮЩИХ
ДЕТОНАЦИОННУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ АВТОМОБИЛЬНЫХ
БЕНЗИНОВ**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2021.4.PhD/Г2447

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: Махмудов Мухтор Жамолович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Дустов Хамро Бозорович
доктор химических наук, профессор
Садыков Осмонали Худойберганиевич
доктор философии по техническим наукам, (PhD)

Ведущая организация: Каршинский инженерно-экономический институт

Защита диссертации состоится «26» апреля 2024 года в 11:00 часов на заседании научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 по присуждению учёных степеней при Бухарском инженерно-технологическом институте (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирован под номером № 461). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К. Муртазоева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан «14» апреля 2025 г.
(протокол рассылки № 22 от «18» декабря 2024 г.).



[Handwritten signatures in blue ink]

С.Ф. Фозилов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

А.Т. Олтиев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.т.н., доцент

Х.Б. Дустов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на сегодняшний день увеличиваются объемы производства биотоплива, в частности, полученного на основе биоэтанола, биометанола, биометана и других подобных возобновляемых ресурсов. Среди указанных альтернативных топлив большое значение в повышении экологической безопасности и ресурса автомобильных бензинов имеет метанол, полученный на его основе автомобильный бензин может быть использован в современных автомобильных двигателях. Поэтому особое внимание уделяется развитию технологий, направленных на получение альтернативного топлива на основе метанола, отвечающего современным требованиям.

В мире ведутся научные исследования по разработке добавок и присадок, повышающих детонационную устойчивость автомобильных бензинов на основе спиртов, аминов и эфиров. При этом особую важность имеет производство автомобильного бензина путем добавления антидетонационных добавок и присадок на основе разработки точного состава каждой разрабатываемой антидетонационной присадки для бензинов, полученной на основе различных процессов, и подбора альтернативных их концентраций для бензинов, оценки эффективности присадок по экологическим-эксплуатационным свойствам бензина на основе требований, предъявляемых к бензинам.

С увеличением количества автомобилей в нашей республике увеличивается и спрос на высокооктановый бензин, отвечающий современным экологическим требованиям. В связи с этим проводится большое количество научных исследований по производству бензинов на основе возобновляемых ресурсов с улучшенными физико-химическими и эколого-эксплуатационными свойствами, улучшающих детонационные свойства автомобильных бензинов и повышающих их ресурс на основе метанола. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие задачи, как «широкое внедрение инноваций в экономику, развитие кооперативных связей промышленных предприятий и научных учреждений».¹ С этой точки зрения особое значение приобретает разработка добавок и присадок, повышающих детонационную устойчивость автомобильных бензинов на основе местного сырья.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2614 от 28 сентября 2016 года «О мерах по увеличению производства готовой экспортоориентированной продукции на основе глубокой переработки углеводородного сырья на 2016-2020 годы», № ПП-3246 от 29

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

августа 2017 года «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности организаций химической промышленности», а также иных нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. Научные исследования, направленные на разработку антидетонационных присадок и добавок на основе метанола, повышающих детонационную устойчивость автомобильных бензинов, проведены такими мировыми учёными как Scott A. Stout, Allen D. Uhler, E. Lois, A.K. Gupta, Chongming Wang, Yanfei Li, Cangu Xu, Tawfik Badawy, Amrit Sahu, Changzhao Jiang, Eiman Ali Eh. Sheet, Naveen Kumar, Mukul Tomar, Ankit Sonthalia, Dushyant Mishra, А.В. Томин, В.Е. Емельянов, А.В. Ганцев, А.А. Яковлев, А.Ф. Ахметов, И.Н. Павлова, О.И. Парпутс, Г.Л. Рабинович, Б.Б. Жарков, В.М. Капустин, а также учёные нашей страны как Г.Р. Нарметова, Б.Н. Хамидов, У.К. Ахмедов, Р.К. Ахмедов, Ш.М. Саидахмедов, С.Ф. Фозилов, Р.Р. Хаитов, М.Ж. Махмудов и др.

Этими учёными проведено множество научных исследований по разработке высокоэффективных присадок, улучшающих антидетонационные свойства автомобильного бензина, на основе различных металлоорганических соединений, вторичных спиртов и простых эфиров. Кроме того, создан ряд научных разработок и методических рекомендаций по производству высокооктанового автомобильного бензина на основе антидетонационных присадок и компонентов бензина.

Наряду с этим, недостаточно изучены и проведены научные исследования, направленные на получение автомобильного бензина на основе метанола, ароматических и полициклических аминов, бутанола-1 и ЭУБЭ, улучшающих экологические и эксплуатационные свойства автомобильных бензинов, увеличивающих их ресурс, с длительным индукционным периодом химических свойств бензин-спирт-водной композиции на основе законов Гиббса и Генри.

